



ТИПАМЕ




Tadqiqot.uz



# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

халқаро илмий-амалий конференцияси  
**МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ**



ТОШКЕНТ ИРРИГАЦИЯ ВА ҚИШЛОҚ ҲЎЖАЛИГИНИ МЕҲАНИЗАЦИЯЛАШ МУҲАНДИСЛАРИ ИНСТИТУТИ  
МИЛЛИЙ ТАДҶИҚОТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ЮНЕСКО ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТИ  
ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ  
ТОШКЕНТ ФАРМАЦЕВТИКА ИНСТИТУТИ  
ТОШКЕНТ ШАҲАР ХОТИН-ҚИЗЛAR “ОЛИМА” АЁЛЛАР ҮЮШМАСИ  
ТАДҔIQOT.UZ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ ЖУРНАЛЛАР ПОРТАЛИ

# ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАЪНАВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ

халқаро илмий-амалий конференцияси  
(Тошкент, 2-3 марта 2023 йил)  
**МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ**



# **КОНФЕРЕНЦИЯНИГ ТАШКИЛИЙ ҚЎМИТАСИ**

## **МАСЪУЛ МУҲАРРИР:**

Исмоилова З.К. - педагогика фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)

Ўлжаева Ш.М. - тарих фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)

Джураева Н.Д. - тарих фанлари номзоди, доцент (Тошкент, Ўзбекистон)

## **КОНФЕРЕНЦИЯ МУСАҲИХИ ВА КООРДИНАТОРИ:**

Базарова М.М. - (Тошкент, Ўзбекистон)

## **ДИЗАЙНЕР:**

@TADQIQOTDESIGN

## **ИЛМИЙ МУҲАРРИР:**

Ўлжаева Ш.М. - тарих фанлари доктори, профессор (Тошкент, Ўзбекистон)

Бабаджанова Н.А. - тарих фанлари номзоди, доцент (Тошкент, Ўзбекистон)

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ ВА АЪЗОЛАРИ:**

Мамадаминова Б. - тарих фанлари номзоди, доцент (Тошкент, Ўзбекистон)

Толибоева Н.О. - PhD, доцент (Тошкент, Ўзбекистон)

Мирзахмедов Х.А. - PhD, в.б. доцент (Наманган, Ўзбекистон)

**«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ОЛИМА АЁЛЛАРНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА МАҲНАВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ»** мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллар тўплами (Тошкент ш., 2-3 марта 2023 йил) / масъул муҳ. Ismoilova Z.K., O'ljayeva Sh.M., Djurayeva N.D. - Тошкент: ТИҚҲММИ-МТУ, 2023. – 324 б.



Shu o'rinda aytib o'tish joizki o'quvchilarimizning ta'lif tarbiya ayniqsa ma'rifat borasida ham yuksak e'tirof eta olishimiz kerak.Ma'rifatning yaratuvchanlik kuchini har bir soha,kasb hamda shaxslar faoliyatida ro'yobga chiqarish amaliyoti va nazariyasi Xarakatlar Strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida asoslanib xayotning deyarli barcha jabxalariga keng joriy etilib keligan va real samarasini bermoqda.

Shunday qilib ma'rifat hattoki davlat olib borayotgan har bir islohot va siyosatda bilinib o'z aksini ko'rsatib turadi.Ma'rifat,madaniyat,bilimlilik va o'z ustida tinimsiz ishlash kelajakdagi katta yutuq va marralarni egallashga sezilarli darajada yordam beradi.Maqolamning so'nggi satrlarini shunday tugataman"Olimlik-Alloh nurini solgan ulug' bir martaba".Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur,ziyo taraladi.Barchamizga ana shunday nur taratmoqlik nasib qilsin!!!

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. «Xarakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari».Toshkent-2017 11-27-betlar.
2. «Ta'lif fan va Innovatsiya» (Ma'naviy-ma'rifiy ilmiy uslubiy jurnal) 4-2018.
3. «Milliy tiklanishdan – Milliy yuksalish sari» Toshkent-2019(48-bet)

**Xudoyberdiyev Xumoyunbek Xabibulla o`g'li**

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo`jaligini

Mexanizatsiyalash Muhandislari Institut

«Milliy Tadqiqot Universiteti» 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: - Sh. O'ljaeva

Toshkent Irrigatsiya va Qishloq Xo`jaligini

Mexanizatsiyalash Muhandislari Institut

Milliy Tadqiqot Universiteti professori,

tarix fanlari doktori

## YOSHLAR ONGIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MUSHTARAKLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

### ANNOTATSIYA

Milliy qadriyatlar avvalo insonning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, milliy g'ururi bilan bevosita bog'liq ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Zero, milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini, ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millatning bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalashi demakdir. Xalqimizning madaniy-ma'rifiy boyliklari va milliy qadriyatlarini to'la, oqilona egallash va rivojlantirish hozirgi biz yosh avlodning asosiy vazifasidir. Gap nafaqat o'tmisht madaniy-ma'rifiy boyliklariga ega bo'lishimizdagina emas, balki uni chuqur egallab, yangi yuksak bosqichlarga ko'tara bilishimizdir.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat, milliy o'zlikni anglash, qadriyat, millatlararo, baynalminallik, umuminsoniy, urf-odat, an'ana, insonparvarlik

**Kirish.** Milliy g'oya tizimida asosiy unsurlar; milliy meros va qadriyatlar muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, milliy o'zlikni shakllantirish tarkibida milliy meros va qadriyatlar doimo milliylikning asosi bo'lib kelgan.

Avvalambor, milliy meros va qadriyatlar demokratiyani ifodalaydi va o'z-o'zini ongini shakllantirish strukturasining mohiyati hamdir. Aynan – bu milliy meros va qadriyatlar milliylikni shakllantirishda aqliy o'z-o'zini anglash tizimidagi asosiy omillar ekanligini unutmasligimiz kerak. Shuning uchun, obyektiv orqali tizimdagagi milliy meros va qadriyatlarning qiymatini baholashimiz milliy g'oya, uning mohiyati va istiqbollarini belgilab, ilmiy falsafiy xulosalar chiqarishimiz mumkin. Milliy tushunchaning turli talqinlari mavjud bo'lib, izohli lug'atda asosiy ma'naviy tushunchalarga quyidagicha ta'rif berilgan: Milliy meros majmuani belgilovchi tushuncha sanaladi.



Yaratilgan barcha jismoniy, moddiy va ma'naviy qadriyatlar ajdodlarning aql-zakovati, harakat qobiliyati va mehnati natijasida belgilanadi. An'analar, urf-odatlar va bayramlar ma'naviy madaniyatning ajralmas qismidir. Bular millatning ijtimoiy xarakterini aks ettiruvchi muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Milliy me'rosning tarkibi quyidagilardan iborat:

- 1) Milliy an'analar, urf-odatlar, marosimlar, qadriyatlar;
- 2) Mafkura;
- 3) Turli marosimlar;
- 4) Jahon ahamiyatiga ega ixtiolar;
- 5) Milliy ziyorolar va ular tomonidan yaratilgan adabiy asarlar, nashrlar;
- 6) Davlat tuzumi;
- 7) Milliy madaniyatlar – qimmatbaho buyumlar, tarixiy yodgorliklar va boshqalar
- 8) Ularning har biri asrlar davomida millat vakillari tomonidan shakllangan va keying avlodga meros sifatida saqlanib qolgani bejiz emas. Milliy o'zlikni shakllantirish va rivojlantirish milliy mafkura tizimida muhim o'rinn tutadi. Zero, milliy g'oya – barcha insonlarning manfaatlarini ham ifodalovchi g'oya ekanligini yaxshi bilamiz. Qadriyatlar har bir milatning o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Sh.M. Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz" deb nomlangan kitobida "**Biz yoshlarimizning milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhidha tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur**", deb ta'kidlaydi. Zero, Milliy va umuminsoniy qadriyatlar hayot sinovidan o'tgan, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisa ekanligi, shu bilan birga bu masaladan yanada ko'proq o'rganishlar va izlanishlar kerakligini ta'kidlaganlar. Shu asnoda yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning mushtarakligiga alohida e'tobor qaratilishimiz kerak bo'ladi.

**Maqolaning muhokamasi.** Avvallo qadriyat bu - inson va insoniyat uchun ahamiyatl bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari majmui hisoblanadi. Qadriyatlar axloqiy qoida va me'yorlar, g'oyalilar va maqsadlardagi baholash mezoni hamda usullarini o'zida aks ettiradi. Ular - halollik, poklik, o'zaro yordam vaadolatlilik, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar: burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi axloqiy tushunchalar bilan jamiyat oldida baholanadi.

Qadriyat tushunchasi yoshlar ongida tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklar bo'lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish bo'lib, takomillashuvi - keljak avlodning ijodiy o'sishini rag'batlantirish omili sifatida qarashimiz kerak.

Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar demakdir. Dunyoda o'ziga xos qadriyatları bo'lмаган millat yo'q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega jihatlar, xususiyatlar, moddiy va ma'naviy boyliklar desak ham xato bo'lmaydi.

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birlashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Qadriyat" tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya'ni tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblasa, boshqa bir tadqiqotchi Rikert, aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deb hisoblaydi. T.Parsonsning fikricha, qadr me'yoriy andozadir. Bu kabi turli xil fikrlarni uchratishimiz mumkin. Hatto qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma'nosini ko'p qirrali ekanligini bilish olishimiz mumkin.

Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, an'analarimiz va o'zligimizni anglashga yordam beradi va bu borada xalqni-xalq, millatni-millat sifatida birlashtiradi. Zero, o'z



qadriyatlarini va qadrini bilgan xalq olomonga aylanmaydi; buyuk ishlarga qodir ekanini his qilgan holda istiqlolni omon saqlaydi, farzandlarining kamoloti uchun qayg’uradi va kurashadi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlarni jamiyatning yangilanishiga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy omil sifatida ko’rsak ham xato bo’lmaydi. Darhaqiqat, milliy ma’naviyat madaniyat ifodasi bo’lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo’shgan munosib hissasining hosilasidir. Barchamizga ma’lumki, qadriyatlarning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramlar-u sayillar tashkil etadi. O’zbek millliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g’oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o’zbeklarning o’zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o’zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o’zaro hurmat, bir-biriga suyanish va qo’shnichilik, bolajonlik va otanonaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e’zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o’sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy- madaniy meros xazinasiga qo’shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko’rsatkichdir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg’unlashib borayotganligini, mustaqillik yillarida O’zbekistonda vujudga kelgan – fuqarolarni tinch-totuv yashashga, barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko’rshimiz mumkin. Endilikda tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik O’zbekistonda yashovchi barcha xalqlarni, millat va elatlarning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatiga aylanmoqda.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko’ra **milliy, mintaqaviy va umuminsoniy** turlarga bo’linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy hodisa bo’lib, u millatning tili, madaniyati va ma’naviy tarixi, urf-odatlari, an’analari, jamiki, moddiy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizda negiz bo’lib xizmat qilmoqda. Bu hol milliy mafkuramizda ham o’z ifodasini topib, jamiyatimiz taraqqiyotiga o’z ta’sirini o’tkazmoqda. 2012-yilda Jamoatchilik fikrini o’rganish markazi O’zbekiston Respublikasida “Milliy o’ziga xoslik” mavzusi bo'yicha sotsiologik savol-javob o’tkazilgan. Savol shunday bo’lgan edi: “Siz xalqimizning urf-odatlari, an’analari va marosimlarini qanchalik bilasiz?” Ko’pchilik sotsiologik so’rovlarda qatnashgan respondentlar (2006-yilda 88,1%, 2012-yilda esa 93,1%) bilishlarini tasdiqlaganlar. Faqat 1,7% respondentlar urf-odat va an’nalarni yaxshi bilishmasligi aniqlangan. Qolgan respondentlarga ikkinchi bir savol bilan yuzlanishganlarda, ya’ni “Agar bilsangiz, urf-odat va an’anlarimizga qay darajada amal qilasiz?” deyilganda 2006-yil ko’rsatkichlari 37,3 %ni tashkil qilgan bo’lsa, 2012-yilda bu ko’rsatkich 43,5%-ni tashkil qilgan. Respondentlarning 5,2%i urf-odat va qadriyatlarga amal qilishni xohlamaymiz degan bo’lsalar, 1,7 foizi hech qanday urf-odatlarga rivoya qilmasliklarini aytishgan. Yuqoridagi qayd qilingan sotsiologik tadqiqotlar natijalari milliy an’analarni saqlash zarurligini ko’rsatdi.

Qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyoda suvning qadri aholi uchun katta bo’lgan. Otabobolarimiz suvni muqaddas, hayot manbayi deb bilganlar. Ota-bobolarimiz onalari kabi suvni ham muqaddas bilishgan. Suvni ifloslantirish, tupurish va unga axlat tashlashni juda katta gunoh va jinoyat deb hisoblashganlar.

Tabiatning eng go’zal ne’mati bo’lgan gullarga bag’ishlangan bahoriy bayramlarimiz ham bir talay. Ayniqsa mashhurlari – Farg’onada vodiy festivali “Lolalar bayrami”, Buxoroda “Bulbul qo’shig’i”, Qashqadaryo va Surxondaryoda “Qizil gul ” festivallari shular jumlasidandir. Ta’kidlash joizki, ko’plab ijobjiy xususiyatlarga ega bo’lgan qadimiy bayramlar milliy merosning tarkibiy qismiga aylanib, yangicha mazmun-mohiyat bilan boyib bormoqda. Milliy bayramlarda, urf-odatlarda o’zgacha tarovat bo’lib, birlik, do’stlik, kelajakka ishonch kabi ezgu fazilatlarni ham o’zida mujassamlagan. Ular millatni ma’naviy-axloqiy boyitishda juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. **Birinchidan**, o’zbek xalqining qadimiy bayramlari, yashash sharoitlari, ma’lum bir tashqi muhit, iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog’liq, lekin ular asta-sekin urf-odatga aylanib, ommaviy tus oladi; **ikkinchidan**, bu bayramlar, marosimlar, urf-odat va an’analarga dinlarning ta’siri katta; **uchinchidan**, bayramlar, marosimlar, urf-odatlar xalq hayoti, iqtisodiyoti bilan bog’liqligi tufayli insonlar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi; **to’rtinchidan**, millatlararo do’stlikni, diniy munosabatlarni targ’ib qiladi; bag’rikenglik, mehr-oqibat, Vatanga muhabbat, tinchlikni saqlashga o’rgatadi; **beshinchidan**, yoshlar tarbiyasiga yordam beradi, uning dunyoqarashini, milliy o’zini-o’zi anglashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.



Ta'bir joizki, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz haqida gap borar ekan eng qadimiy bayramlarimizdan bo'lgan Navro'z bayrami haqida to'xtalmasligimizning iloji yo'q. Uch ming yildan ziyod tarixga ega Navro'zi olam – sharqona yangi yil o'zining yangilanish, bahor nafasini boshlab kelishi, xalqimizning tabiatni, ong-u tafakkuri, qalbiga chuqur singib ketgani, har qaysi oila, har qaysi xonadonga shod-u hurramlik olib kirishi bilan eng qadrli, aziz va suyukli milliy bayramdir. Navro'z biror bir millat yoki madaniyatning bayrami sifatida emas, balki butun insoniyat merosining ajralmas qismiga aylandi. Navro'z yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirishga xizmat qilishi shubhasiz. Navro'z bayrami 2009-yil 30-sentabrda YuNESKO tomonidan insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan va 21-mart kuni BMT tomonidan "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'lon qilingan. BMTning sakizinchisi Bosh kotibi Pan Gi Mun ham Navro'z insoniyat madaniyatining bir qismi ekaniga alohida e'tibor qaratgan edi. "Navro'z – bu bugugi chegaralar va ixtiloflardan qadimiyroq bayram".

Navro'z xotirjamlik, ezungulik va tinchlik, baxtli hayot hamda bahor kirib kelishi ramzidir. Navro'z bayrami mamlakatimizda yashayotgan millati, tili, dinidan qat'i nazar, barcha vatandoshlarimiz orziqib kutadigan umumxalq bayramiga aylangan. Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiyligi – O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida barcha sohalarda fidokorona mehnat qilmoqda. Navro'z bayramini o'tkazish yosh avlodni tarbiyalash, xalqimiz ijodiyotining eng yaxshi namunalari misolida ular dunyoqarashini shakllantirish, milliy o'zlikni anglashda katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning o'z aql-zakovati, iste'dodini to'la namoyon etishi, mahoratini muttasil oshirib borishi, yuksak ma'naviyatlari, barkamol avlod bo'lib voyaga yetishiga qaratilgan e'tibor va g'amxo'rlik samarasida xalqaro maydonlarda Vatanimiz shon-shuhuratini ulug'lashga qodir o'g'il-qizlar safi kengaymoqda.

Kuzda nishonlanadigan yana bir bayramimiz bu - Mehrjon bayramidir. «Mehrjon» — «Ruh ishqisi» degani, ikkinchi ma'nosi bu – Quyosh. Beruniy "Mehrxon"ni dehqonchilik bayrami deb ta'riflagan. U quyosh va oy osmonning ikki ko'zi ekanligini yozgan.

Navro'z va Mehrxon esa yilning ikki ko'zidir. Shuning uchun, "Navro'z" bayramini bahorgi kun tengligida nishonlasak, keyin "Mehrxon"ni kuzgi tengkunlik kunida nishonlaymiz.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onaga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat – bular insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan hisolanadi. O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qatmaydigan ajoyib qadriyatlardan biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, hurmatini joyiga qo'yishdir. Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-ona farzandning suyanchig'i, bitmas-tugunmas boyligidir. Hech ikkilanmasdan shuni aytishim mumkinki, ota-ona farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda.

Shunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmatini unutmaslik, duolarini olish – biz farzandlarning farzandlik burchimizdir. Bu milliy qadriyatlarmizning eng muhim talablaridan biridir. Buyuk bobokalonlarimiz aytganlaridek, ota-ona uchun xizmat qilmoq biz farzandlar uchun majburiyatdir: "Ota-ona ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziyi! Ikki dunyong obod bo'lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol! Tun-u kuningga nur berib turgan – birlasini oy deb bil, ikkinchisini quyosh" [Milliy qadriyatlар elib. buxdzu.uz]

Tan olib shuni aytishimiz kerakki, keyingi paytlarda keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish zarurligi haqidagi milliy qadriyatlarmiz biroz xira torta boshlagandek tuyuladi. Ba'zi yoshlarda kattalarni hurmat qilish, ularning gaplariga qulq solish singari yuksak ma'naviy fazilatlar yo'qalib ketayotgandek. Ehtimol, boshqa millat vakillari bunga unchalik e'tibor berishmas, lekin biz o'zbeklar buni his qilmay ilojimiz yo'q. Keksalar uchun ajratilgan "Qariyalar uylari" da farzandlari tirik ota-onalar yashayotganligi achinarli holdir. Goh-gohida bo'lsa-da, o'z ota-onasiga qo'l ko'targan, undan ham og'irroq jinoyat sodir etgan farzandlar haqida matbuot sahifalarida o'qib, o'ylanib qolasan kishi. Bu – oddiy bir nuqson emas, balki inson uchun ma'naviy tubanlik,



bag'ritoshlik, ko'rnamaklilikdir, ajdodlarimiz o'g'itlarini nazar-pisand qilmaslik, oyoq osti qilishlikdir.

Bunday holatlarni ko'rib, milliy, axloqiy qadriyatlarimizga, o'zbek xalqining sha'niga dog' tushiradigan bunday yaramas hodisalar qayerdan kelib chiqdi, ularning asosiy sababi, ildizi nimadan iborat, degan savol har bir ma'naviyatlari insonni o'yantirishi tabiiy. Shuni aniq aytish kerakki, taraqqiyotning muayyan bosqichida, sobiq Ittifoq davrida ayrim yoshlar o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini chuqur o'rganish, tahlil etish, mohiyatini to'la anglab yetishdan butkul mahrum bo'lib qoldgan edilar. Ota-bobolarimizning o'gitlari, pand-nasihatlari, eng ajoyib an'analarimiz, milliy qadriyatlarimiz tinmay targ'ib-tashviqot qilinishi, odamlar ongi va turmushiga singdirilishi o'rniga nuqlig qoralandi, yomon otliq qilindi, bid'at, xurofot, deb baholandi. Milliy qadriyatlarimizning serma'no, serhikmat g'oyalarini o'zida jo qilgan va targ'ib-tashviq qiladigan o'zbek xalq rivoyatlari, ertaklari, dostonlari, maqol va matallari, aruz va baytlari, kuy va qo'shiqlariga unchalik e'tibor berilmadi, ular sinchiklab o'rganilmadi. Bularning o'rniga Yevropa va boshqa xalqlarning madaniy-ma'naviy meroslariga ruju qilindi. O'nlab yillar davomida biz ta'lim-tarbiya borasida Yevropa, Rossiya modelini ko'klarga ko'tarib maqtab, targ'ib qilib, yoshlarimizni o'z milliy qadriyatimizdan bebahra qilib qo'yidik. Ana shu kasofatlar tufayli diniy, axloqiy, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizning, oila, mакtab, mahalla-ko'y, qo'ni-qo'shnilar ta'lim-tarbiyasining hayot sinovidan o'tgan bebaho boyliklaridan judo bo'la boshladik, bora-bora ularni unutdik va bugun xalqimiz orasida turli illatlarga duch kelib turibmiz.

Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga zid bo'lgan bunday salbiy hodisalarining uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emas edi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Avvalambor, mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida ham tub burilish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladи.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni - Konstitutsiyasida farzandlarning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Konstitutsiyaning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amg'o'rlik qilishga majburdirlar.

Milliy qadriyatlar ustida fikr yuritganda yana bir muhim masalani alohida ta'kidlashga to'g'ri keladi.

Afsuski, o'tgan sobiq sovetlar davrida xalqimizning ana shu muhim an'analarini ba'zan e'tibordan chetda qola boshladi, yoshlarning mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirish masalasiga rasmiyatçilik bilan qaraldi. Shahar va qishloqdagi maktab o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish masalasiga birmuncha sovuqqonlik bilan qaraldi.

Birinchi Prezident tomonidan qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga binoan, respublikamizda turli mutaxassislik bo'yicha 297 yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari tashkil etildi. Xalqimiz orasida boy tajribalar to'plangan kasb-hunar sirlarini o'rganish, ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlanish asosiy o'rin tutadigan bo'ldi. Shundan keyin esa tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlarimizga e'tibor kuchayishi bilan birga yangi sahifa ham ochildi. Ayniqsa, yoshlarda milliy g'ururni shakllantirish va mustahkamlashga alohida ahamiyat beriladigan bo'lganligi tahsinga sazovordir.

Jamiyatda har kim o'ziga munosib o'rin egallashi va hayot kechirishining mezonlari hozir tamomila boshqachadir. Bundan buyon insonning jamiyatdagi o'rnini, istiqboli va kelajagini faqat uning bilimigina emas, balki aql-idroki, ishbilarmonligi va uddaburonligi, mehnat malakalari ham belgilaydi.

Bilimni sevish va ardoqlash, olim-u fuzalolarni, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan ajoyib qadriyatlarimiz ham benihoya ko'p. Shulardan yana ba'zi birlari ustida to'xtolib o'tishni o'rinci deb hisobladim.

Milliy qadriyatlarimizda bilim va bilimdonlik juda ulug'lanadi. Bilim va zakovatning qadr-qimmati, jamiyat taraqqiyoti, shaxsning madaniy-ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun ahamiyati



haqida qanchadan-qancha kitoblar bitilganini, rivoyatlar aytilganini, maqollar to'qilganini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq narsa yo'qligi to'g'risida Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnama", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat", Alisher Navoiyning "Xamsa" kabi mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Xalqimizning ko'hna va boy tarixiga nazar tashlasak, Yurtboshimizning quyidagi so'zлari qanchalik asosli ekaniga ko'p bora guvoh bo'lamic:

"Azaldan o'zbek mahallasi chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetimesirlarning boshini silash, to'y-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'analar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan". [Milliy qadriyatlar. elib. buxdu.uz]

Mustaqillik yillarida esa mahallaning bu azaliy xususiyatlari qatoriga ko'plab yangi va mas'uliyatli vazifalar kelib qo'shildi. Chunonchi, mahallaning huquq va vakolatlari doirasi sezilarli kengaytirildi. U o'zini o'zi boshqarishning g'oyat xalqona, tabiiy tizimi sifatida jamiyat hayotini tashkil etishda tobora faol ishtirok etmoqda. Uning bu ishtiroki ham qonuniy, huquqiy asosga ega bo'ldi. "Davlatchiligimiz tarixida birinchi marta "mahalla" tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o'rni va maqomi qat'iy belgilab qo'yildi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992-yil 12-sentabrdagi Farmoniga ko'ra, yurtimizda "Mahalla" xayriya jamg'armasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 17-oktabrdagi "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarori, Oliy Majlisning 1993-yil 2-sentabr va 1999-yil 14-apreldagi sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni mahallaning Konstitutsiyada belgilangan maqomini yanada mustahkamlaydigan huquqiy asoslar bo'ldi.

Birinchi Prezidentimiz mahallalardagi ma'naviy muhit sog'lomligi mamlakat hayotida qanchalik muhim rol o'ynashini shunday ta'kidlaydi: "Biz har qaysi xonodon, butun el-yurtimizdag'i ma'naviy iqlim va vaziyatni anglamoqchi bolsak, bu boradagi haqiqiy manzaraning yorqin ifodasini avvalo mahalla hayotida xuddi oynadek yaqqol ko'rish imkoniga ega bolamiz".

Darhaqiqat, biz uchun oilamiz ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahallamiz muqaddas Vatanimiz ichidagi mo'jaz vatandir. Aytganimizdek, mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topgani kabi oila ham mahalla ko'z oldida barpo bo'ladi, uning ichida ravnaq topadi. Shu tufayli ham mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisidir.

O'zbekistonning boy tarixiy merosi, uning ma'naviy-axloqiy an'analarini va qadriyatlarini, jahon madaniyatiga qo'shgan beqiyos hissasi respublikaning zamonaviy xalqaro munosabatlarda, faol tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy faoliyatda teng huquqli sub'yeqtga aylanishining asosiy va muhim vositasidir.

Bizning asosiy g'oyamiz — Vatanimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahkamlash orqali iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari, xalqimiz farovonligi va mamlakatimizning bundan buyon ham gullab-yashnashiga bor kuch-qudratimizni bag'ishlash orqali jonajon O'zbekistonimizning milliy manfaatlari yo'lida fidokorona xizmat qilishdir.

Biz uchun yagona va ustuvor maqsad, bu — O'zbekiston manfaati va yana bir bor O'zbekiston manfaatidir.

Xullas, millat mayjud ekan milliy qadriyatlarning ahamiyati aslo kamaymaydi.

Millatlarning ma'naviyat jihatidan bir-biriga yaqinlashib borishi ham milliy qadriyatlarning rivojlanish va amal qilish imkoniyatlarini kamaytirmaydi, balki kengaytiradi.



Umuman olganda, milliy qadriyatlar har bir millatning mohiyatini, uning muayyan mustaqil ijtimoiy birlik ekanini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biridir

Bugungi erkin va ozod hayotning ma’nosи va qadr-qimmatini yoshlarning ongi va qalbiga etkazishda birinchi navbatda ota-onalar, ustoz-murabbiylar mas’ul bo’lmog’i kerak. Zero, Bugun yoshlarimiz qanday qadriyatlar sari intilmoqda, qanday orzu-niyat va o’y-hayollar bilan yashamoqda, biz bunga loqayd va befarq qaramasligimiz kerak. “Ota-ona, ustoz-murabbiy, yetakchi-rahbar sifatida bu jarayonni chetdan turib kuzatishga haqqimiz yo’q”. [Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minalash. <https://minecomy.uz>] Bugungi kunda yosh avlodlarimizning ma’naviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa bo’lib kelmoqda

Bugun yoshlar o’z milliy tarixini o’rganmoqda. Ona tili, madaniyat, urf-odat va an'analarining qayta tiklanib borayotgani ularni o’zligini anglashga shart-sharoit yaratib berayotgani ham muhim yutiqdir. “Bugun yoshlar shunchaki milliy-ma’naviy qadriyatlarini o’rganib qolayotgani yo’q. Ular dunyo xalqlari erishgan yutuqlardan bahramand bo’moqda. Xorijiy davlatlarda o’qish, bilim olib, fan-texnika yutuqlari, ilg’or texnologiyalarni egallab jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga joriy etish imkoniyatiga ega bo’lmoqdalar”. [Yoshlar ma’naviyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning omili. Narzullayeva Malika Nabijon qizi]

Faxr bilan shuni ta'kidlab o'tmoqchiman, hozirda yurtimiz har bir sohada yuksak marralarni zabit etmoqda. Quvonarlisi shuki, shu yerda shuni faxr bilan tilga oлar ekanman, guvohi bo'lganimizdek bir hafta davomida dunyo nigohlari bizni yurtimizga qaratildi. Yurtimiz Dyuzdo bo'yicha Jahon championatiga mezbonlik qildi. Xumo arenalarida sportchilarimiz yurtdoshlarimiz ko'z o'ngida Vatanimiz sha'nini himoya qilishdi. Bu musobaqani e'tiborli tarafi shundaki, musobaqada g'alaba qozongan sportchilarimizning barchasi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning qo'llaridan musobaqa medallarini qabul qilishdi. Bu lahzalar tariximizning yorqin sahifalariga muhrlandi. Bu kabi yutuqlar barchamizning yutug'imizdir.

Bu musobaqaning tashkiliy ishlarida milliyligimiz, qadriyat va an'analarimizni ko'rib, butun dunyo Vatanimizga o'z minnatdorchilagini izhor qilishdi. Bu kabi yutuqlarimiz yurtimizdagи har bir Yosh avlodga o'zgacha faxr tuyg'usini baxshida etmoqda. Shukrki, mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, totuvlik hamda inoqlik, birdamlik va hamjihatlik hukm surayotir. Eng muhimi, ozod yurtimizning hech kimdan kam bo'limgan farzandlari kelajakka qat'iy ishonch bilan yuksak marralarni sari dadil odimlamoqda.

Yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shish har birimiz burchimizdir. Zero, yurtimiz kelajagi biz yoshlar qo'lida. Har birimiz Vatanimizga bo'lgan muhabbatni his qilgan holda, uning manfaatlari yo'lida astoydil harakat qilsak, biz albatta bundanda yuksak marralarni zabit qilamiz!!!

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz”. T. 1. T.: O’zbekiston, 2017.
2. Asosiy ma’naviy tushunchalarning izohli lug’ati. T.: G. G’ulom. 2009y
3. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar qisqa izohli tajribaviy lug’at – T: “Yangi asr avlodи, 2002. b-177
4. Prezident Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. Ma’naviyat, 2008 yil.
5. Nazarov V. Ergashev I. Milliy g’oya va rahbar mas’uliyati. T.: G. G’ulom, 2007 y.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T. Fan, 1969 yil.
7. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug’at. -Toshkent: 2006. b-233
8. Tinchlik va bag’rikenglik atamalariga izohli lug’ati. – Toshkent – 2005, b-103-104].
9. Qodirov M. Bayramlar, o’yin-kulgilar, marosimlar. T.: Sharq, 1998 yil.
10. Kodjamurodov I. va Abduraimova M. Siyosat, din va milliy o’zligimiz. T.: Falsafa va huquq, 2010.
11. “Milliy o’zini o’zi yaratish” mavzusidagi sotsiologik tadqiqotlar natijalari. “Ijtimoiy fikrni o’rganish“ markazi tomonidan O’zbekiston. Toshkent: Jamoatchilik fikri, 2012 yil



12. Qoraboev U. O'zbek xalqining bayramlari. T.: Sharq, 2002 yil. Avloniy, Abdulla. Turkiy Guliston yohud axloq. Toshkent. O'qituvchi, 1992 yil.
13. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz". Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni o'lgan. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488-bet
14. Sh.M.Mirziyoyev, Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 592 b.
15. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.
16. Mo'minova X. "Yosh avlodda milliy qadriyatlarni shakllantirish" Xalq ta'limi 2003 yil № 1.
17. Quronov M. Milliy tarbiya. Toshkent. Ma'naviyat. 2007. 238 b.
18. Yoshlar ma'naviyatini va ijtimoiy faolligini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning omili. Narzullayeva Malika Nabijon qizi.
19. O"zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent O'zbekiston 2018.
20. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent O'zbekiston 2017.

**M.M.Adashova**

Tashkent State University of Economics

Email. mahsumaadashova@gmail.com

## **MOVAROUNNAHR IN VIII-IX CENTURIES: SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF ISLAMIC IDEAS ON THE LIFE OF TURKISH-SPEAKING PEOPLE**

### **ABSTRACT**

This article philosophically analyzes the socio-spiritual image of the society in the period before the birth of Imam Abu Mansur Moturidi, a mature scholar of the philosophy of the word.

**Key words:** Imam Abu Mansur Moturidi, Islamic religion, Movarunnahr, Arab caliphate, early religious representation, Sogdian writing, national and foreign culture, social and spiritual environment.

Studying the scientific and spiritual legacy of Imam Abu Mansur Moturidi, who became famous as a great scholar and expositor of aqeedah and kalam science in the Islamic world, helps us to understand how much our ancestors' great services in promoting the development of science deserve high recognition. Research shows that the influence of Islamic ideas was very strong in the social and spiritual environment of the time when Imam Abu Mansur Moturidi lived. But the period before the introduction of Islam to Movarounnahr and the influence of Islamic ideas in the society and its philosophical analysis is show how relevant the topic. It is known that Movarounnahr, known as the gap between two rivers, is an ancient place that has passed through the stages of historical development, experienced a number of political-economic, social-spiritual processes, witnessed many rebellions and crises. This region, as a country with several thousand years of history, is widely studied by world scientists. We can even see through historical sources that the first cultural centers that arose in this country were recorded in Greek sources in the first millennium BC. So, we can say that the first religious ideas (animism, totemism, fetishism, shamanism, sorcery, etc.), various religious-philosophical teachings, including Zoroastrianism, Monism, Mazdakism, as well as Buddhism, or Christianity, have existed in this area since the earliest times. such religions and their teachings are widespread, and these religious ideas and teachings have influenced the socio-spiritual way of life of the rural population through their various ideas and ideologies.

**Research methodology.** It is known from history that at the beginning of the 7th century, the religion of Islam, which is a symbol of truth and justice, was revealed to the earth, and our